

PAPER

“DON KIXOT” ASARI TAHLILI

Saidaliyeva Muslimaxon Soibjon qizi^{1, *} and Abdumannonova Muborakxon Shuhratbek qizi²

¹Qo ‘qon Universiteti Andijon Filiali FTO O’ zb yo’ nalishi talabasi and ²Qo ‘qon Universiteti Andijon Filiali FTO O’ zb yo’ nalishi talabasi

* Muslimaxon1@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola Miguel de Cervantes Saavedra hayoti va uning “Don kixot” asari haqida so ‘z boradi. Asarda “Yangi ritsar romanlari” ustidan kulishni, ularga parodiya qilish tarzida yozilgan. Asarga realist yozuvchi sifatida yondashib, insonparvarlik g’oyalari tarannum qilingan, asarda boshqa yozuvchilarga qaraganda individual yondashuvi haqida keltirib o ‘tilgan.

Key words: “Don kixot”, ritser, Sancho pansa, qaxramonlik, Servantes, roman, sarguzasht.

Kirish

“Don Kixot” asarini o ‘rganishdan maqsad ispan yozuvchisi Migel de Servantesning dunyo adabiyotidagi eng mashhur asarlaridan biri bo ‘lgan “Don Kixot” romanining mazmuni, asosiy g ‘oyalari, syujeti, obrazlar tizimi va adabiy-ijtimoiy ahamiyatini chuqur tahlil qilish orqali insonlarning badiiy tafakkuri, adabiy tahlil ko ‘nikmasini va estetik didini rivojlantirish hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Don Miguel de Cervantes Saavedra ispan yozuvchisi, shoiri va dramaturgi bo ‘lgan. Uning “Don Kixot” romani G‘arb adabiyoti klassikasi hisoblanib, 65 dan ortiq tillarga tarjima qilingan. U iyezuitlarning Valyadolidida shahridagi kollegiyasida (1557–61), keyin Madridda tahsil ko ‘rgan. Papa muridlari bilan birga 1569-yilda Italiyaga borgan. Yevropa floti ning Lepanto yaqinida turklarga qarshi olib borgan jangida (1571-yil 7 oktyabr) yaralangan;

vataniga qaytishda (1575) dengiz qaroqchilari qo ‘liga tushib, Jazoirda 5 yil asirlikda yashagan. S.ning adabiy merosida hajviy va ishqiy she‘rlar, ishqiy qahramonlik va hayotiy maishiy mavzudagi drama va komediyalar hamda ko ‘plab hikoyalar mavjud. Bu asarlarga xos eng muhim holat va vaziyatlar, niyat va g ‘oyalar “Don Kixot” da o ‘zining yorqin badiiy tajassumini topgan. Asardagi taqdir bilan murosa qila olmaydigan, har qanday adolatsizlikka qarshi kurashga shay bo ‘lgan qahramon obrazi o ‘z iddizlari bilan 16-asrdagi ispan “yangi ritsar romanlari”, shuningdek,

Italiyadagi Uyg ‘onish davri dostonlari va cho ‘ponlar xaqidagi ko ‘plab hikoyalarga borib taqaladi.

Ammo Cervantes bu asarlarga xos qahramon obrazini yaratish an‘analarini davom ettirishni emas, balki o ‘zi yashagan davrda keng tarqalgan “yangi ritsar romanlari” ustidan kulishni, ularga parodiya qilishni o ‘ziga maqsad qilib olgan. Ayni paytda Cervantes voqelikka realist yozuvchi sifatida yondashib, insonparvarlik g ‘oyalarini tarannum qilgan.

Tahlil va natijalar

“Don Kixot” 19–20-asrlarga kelib olamshumul shuhrat qozondi. Xuddi shu davrlarda asarning tragikomik va umuminsoniy ahamiyati ilk bor kashf etildi; unda tasvirlangan ideal va real qodisalar, soxta qahramonlik bilan haqiqiy jasorat, orzuqarmon bilan real voqelik o ‘rtasidagi keskin farq shu asrlarda kechgan ijtimoiy po‘rtanalar va hayotiy vaziyatlardagi tanazzul mohiyatini o ‘zida ifodalash qudratiga ega bo ‘ldi. Ushbu roman asosida jahonning ko ‘pgina mamlakatlarida sahna (opera, balet, drama), kino (kinofilm, teleserial), musiqa (fantastik variatsiyalar) va tasviriy san‘at (qaykal va boshqalar) asarlari yaratilgan.

La-Manchdagi qashshoq zodagon, keksa Alonso Kexana ritsarlar haqida juda ko ‘p romanlar o ‘qiydi, oqibatda o ‘zi ham jahongashta ritsar bo ‘lishni xohlaydi va o ‘ziga Don Kixot nomini oladi. U sodda va keng fe‘lli inson bo ‘lib, ritsarlar faqat kuchsiz va nochorlarga yordam berish uchun yashaganiga qattiq ishonadi va adabiy qahramonlarni takrorlashni orzu qiladi, ammo kulgili vaziy-

atlarga duch keladi.

Yo 'l bo 'yidagi qovoqxonaning egasi, Don Kixotning yelkasi qoqib qo 'yish orqali unga ritsarlik rutbasini beradi. Safarga ketishdan oldin Don Kixot dehqon Sancho Pansani xizmatkor qilib yollaydi va uni o 'z qurolbardori etib tayinlaydi. Don Kixot kela-jakda erishadigan barcha yutuqlarini qalbidagi yagona ayol –Dul-sineyaga bag 'ishlaydi.

Safar davomida Don Kixot va uning xizmatkori yo 'lda shamol tegirmonlarini uchratadi. Don Kixot ularni dahshatli mahluqlar deb qabul qiladi. Uning fikriga ko 'ra, sehrGAR Freston mahluqlarga shamol tegirmoni ko 'rinishini bergan. Unga qarshi jangga kirgan Don Kixot mag 'lubiyatga uchraydi –tegirmon uni "qanoti" bilan surib tashlaydi va qurolini sindiradi.

Atrofdagi odamlar Don Kixotni jinni deb o 'ylaydi, uni uyiga qaytarishga harakat qiladi. Qarindoshlari Don Kixotni uyda bir muddat ushlab turadi. Ammo ko 'p o 'tmay u o 'zining sarguza-shtlari haqida roman chop etilganini bilib, yana yo 'lga tushish tadorigini ko 'ra boshlaydi. Bir gersog ritsarni o 'z qasriga taklif qiladi, u o 'zini uning qahramonliklaridan qoyil qolganday tutsa-da, aslida, gersog Don Kixotning ustidan kular edi. "Ko 'zgular ritsari" ga qarshi kurashda yutqazgandan keyin uyga qaytgan Don Kixot shunchaki odamlarga kulgu bo 'lganini anglaydi va qayg 'uga cho 'mib kasal bo 'lib qoladi.

Don Kixot o 'z mol-mulkiga vasiyatnoma yozadi, hamma narsani jiyaniga qoldirmoqchi bo 'ladi, lekin u vasiyatnomaga hech qachon ritsarlar haqidagi bema'ni romanlarni o 'qigan odamga turmushga chiqmaslik shartini kiritib qo 'yadi.

Ispan adabiyotining eng buyuk asarini qisqa satrlarda tahlil qilib chiqish juda murakkab ish. Bu asar haqida ko 'p narsa yozil-gan bo 'lsa-da, u hali-hanuz ko 'plar uchun noma' lum bo 'lib qolmoqda. Uzoq asrlar davomida o 'z yurtida adabiyot titani deb qaralgan Servantes, uni endi qo 'liga olgan o 'quvchiga eski us-lubdagi, og 'ir va qiyin muallif sifatida namoyon bo 'lishi mumkin. Ko 'p sahifali Don Kixotni o 'qib chiqish ulkan vazifa sifatida ko 'rinishi tabiiy, ammo asar tili juda yaxshi, muallif so 'zlashish tili-dan foydalangani sababli o 'qish oson.

Don Kixot adabiyotga qiziquvchilar uchun qimmatli marvarid, chunki unda Servantes katta muvaffaqiyat bilan davr adabiyotini to 'liq ko 'rsatib beradi: psixologik hikoyalar, pastoral sarguza-shtlar, har xil she'riy kompozitsiyalar... Yevropa adabiyoti oltin asri urf-odat va ritorikalari ko 'z oldimizda yoqimli va oson hazm bo 'ladigandek namoyon bo 'ladi.

Garchi ommaviy fikr Don Kixotni kulgili asar deb bilsa-da, ro-man juda ko 'p narsalarni o 'z ichiga olgan. Asarni ikki marta boshqa-boshqa taassurot bilan o 'qib chiqish mumkin, biri yuzaki va shunchaki dam olish maqsadida, ikkinchisi chuqur tahlil bilan. Asar asta-sekin, ehtimol muallif ko 'zlamagan inson tabiati va uning ikki tomonlama psixologik faoliyatining chuqur tahliliga aylangan. Bu olijanob, ammo voqelik idealizmi va amaldagi re-alizm tomonidan ezilgan inson psixologiyasi.

Xulosa

Ushbu roman mutolaasidan Don Kixot yashayotgan davr qahra-monlik davr ertaklari, rivoyatlar va shu kabi asarlarning jamiyat olamiga aloqadorligi yo 'q edi, balki mavjud tizimning o 'zgar-ishi va undan yangicha tafakkurga ega avlodlar yopaga yetgan davr, buning natijasida esa uning xayoliy olami va qilgan ishlari odamlarga kulguli tuyular edi. Fikrimizni umumlashmasiga ayni zamin yaratgan "Don Kixot" tilidan aytilgan ushbu so 'zlarga e' tibor qaratishimiz lozim deb o 'ylayman. "O 'zimni donish-mand ham deyolmayman. Men faqat insonlarga ular yer yuzasida jahongashta ritsarlikning baxtiyor zamonlari barqaror zamonlari barqaror etilishini tilamasdan naqadar yengiltaklik qilayotganlar-ini tushuntirib qo 'ymoqchiman xolos. Ehtimolki, bizning majruh

asrimiz ilgari dorilomonlik gashtidan mahrum va unga noloyiqdir. Bunday gasht o 'tmishda, jahongashta ritsarlar davlatni mudo-faa qilganlarida, xotin-qizlarni himoya etganlarida, yetim-yesir, g'arib-u g'arobalarga ko 'maklashganlarida, mag' rurlarni ja-zolab, mo' minlarni siylanlarida haq va barqaror edi. Hozirgi ritsarlar muqaddas sovutlarni ipak-u barqutga almashtirganlar".

LITERATURE

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTE-GRATSIYASI: (Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor kon-ferensiyalar, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2014). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIK-ING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., Olimova, X. (2025). ADABIY-OTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ US-LUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.
5. O'G' Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.
10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 11, 2, 18-20, 2024,
11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIG-ITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION, Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 28, 1, 230-233, 2024,
12. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri' s novel "The Past Days" . Toronto. Design Engineering. 2022. –P. 6091-6101.
13. Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FO-CUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and in-novation, 3(Special Issue 34), 178-181.
14. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.